



TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 17-yanvar

6-10-212-Q/25

Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 4-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrdagi 853-son qarorining ijrosi to‘g‘risida”gi 4-10-0-Q/25-son qarori haqida

Ko‘p xonadonli uylarni boshqarish sohasida raqobat muhitini shakllantirishning ta’sirchan mexanizmlarini hamda ko‘p xonadonli uylardagi joylarning kommunal to‘lovlari bo‘yicha yagona to‘lov usulini yaratish hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 4-yanvardagi 4-10-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6 - moddasiga asosan, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 4-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrdagi 853-son qarorining ijrosi to‘g‘risida”gi 4-10-0-Q/25-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Qaror bilan ko‘p xonadonli uylarni boshqarish organlarining elektron reestrini yuritish bo‘yicha ma’muriy reglament davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi va boshqarish organiga ko‘p xonadonli uylarni biriktirish tartibi tasdiqlanganligini inobatga olinsin.
3. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (N.Bazarbaev) tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda qarorning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyati bo‘yicha aholi o‘rtasida kengaytirilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirsin.
4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i N.Bazarbaev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



S.Ergashev